

Muzaffar KAMILOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektori

GLOBAL TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Maqolada global transformatsiya sharoitida jahon turizm industrisining rivojlanish tendensiyalari va ularning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida milliy turizmni, xususan, ziyorat turizmini diversifikatsiya qilish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish masalalari tadqiq etilgan. Sohaga “Smart Tourism” konsepsiyasi, 3D modellashtirish va VR/AR kabi raqamli innovatsiyalarni hamda ekologik barqarorlik tamoyillarini joriy etish zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi misolida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning strategik ahamiyati ochib berilgan.

Tayanch atamalar: ziyorat turizmi, “Smart Tourism”, raqamli transformatsiya, “O‘zbekiston – 2030”, 3D modellashtirish, ekologik barqarorlik, kadrlar salohiyati.

Аннотация. В статье научно проанализированы тенденции развития мировой индустрии туризма в условиях глобальной трансформации и их влияние на экономику Узбекистана. В рамках стратегии «Узбекистан – 2030» исследованы вопросы диверсификации национального туризма, в частности паломнического туризма, и достижения его целевых показателей. Обоснована необходимость внедрения в сферу концепции «Smart Tourism», цифровых инноваций, таких как 3D-моделирование и VR/AR, а также принципов экологической устойчивости. Кроме того, на примере Международной исламской академии Узбекистана раскрыта стратегическая важность подготовки конкурентоспособных и мультидисциплинарных кадров.

Ключевые слова: паломнический туризм, «Smart Tourism», цифровая трансформация, «Узбекистан – 2030», 3D-моделирование, экологическая устойчивость, кадровый потенциал.

Abstract. The article scientifically analyzes the development trends of the global tourism industry in the context of global transformation and their impact on the economy of Uzbekistan. Within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy, the issues of diversifying national tourism, particularly pilgrimage tourism, and achieving its target indicators are investigated. The necessity of introducing the "Smart Tourism" concept, digital innovations such as 3D modeling and VR/AR, as well as principles of environmental sustainability into the sector is substantiated. Furthermore, the strategic importance of training competitive and multidisciplinary personnel is revealed using the example of the International Islamic Academy of Uzbekistan.

Keywords. Pilgrimage tourism, "Smart Tourism", digital transformation, "Uzbekistan – 2030", 3D modeling, environmental sustainability, human resources potential.

Hozirgi davrda jahonda turizm industriyasining rivojlanishi global raqobat muhitini yanada kuchaytirib, mamlakatlarni o‘z turistik salohiyatini samarali safarbar etish, yangi turistik mahsulotlar yaratish va xizmatlar sifatini oshirishga undamoqda. Bugungi kunda jahon turizm industriyasi nafaqat pandemiyadan keyingi tiklanish davrini yakunladi, balki butunlay yangi qadriyatlar va texnologiyalar asosida

shakllanayotgan transformatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro sayyohlar oqimi barqaror o'sishda davom etmoqda, 2025-yilda jahon bo'yicha turistlar soni 1,5 mlrd. kishini tashkil etib, bu turizm tarixidagi yangi rekord ko'rsatkichdir¹. Turizm sohasi bu davrda 1,8 trln. dollar daromad keltirdi. Bu ko'rsatkichlar turizm sanoatining global YAIM (yalpi ichki mahsulot) tarkibidagi strategik o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Xalqaro miqyosdagi ushbu katta hajmga ega bozorga muvaffaqiyatli integratsiyalashuv uchun misli ko'rilmagan darajada raqobatbardosh turizm sektoriga ega bo'lish taqozo etiladi. Bugungi kunda sayyohlarning talablari ham o'zgargan bo'lib, global bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun quyidagi tendensiyalarni inobatga olish shart:

– Texnologik yetakchilik (Smart-Tourism). Sayohat bozoridagi raqobat endi faqat tabiat yoki tarixiy obidalar bilan cheklanmaydi. Sun'iy intellektga asoslangan turoperatorlik tizimlari, Big Data tahlillari va kontaktsiz (raqamli) servis infratuzilmasi yetakchi o'ringa chiqdi;

– Turizm sektorini diversifikatsiyalash va xizmatlar sifatini oshirish. Bugungi kunda ziyorat turizmi, ekoturizm, tibbiy va gastronomik turizm yo'nalishlarida mutlaqo yangi, milliy xususiyat aks etgan brend mahsulotlar yaratish poygasi ketmoqda.

Bugungi global iqtisodiy jarayonlar va xalqaro turistik bozordagi raqobatning kuchayishi O'zbekiston uchun ham turizm sohasini strategik tarmoq sifatida rivojlantirish zaruratini yanada oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda turizmni milliy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida shakllantirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, mamlakatda turizmni iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishning muhim omili sifatida qarash tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada qabul qilingan strategik hujjatlar turizm sohasida institutsional, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruvchi strategik dasturlarda turizm sohasini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va uning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab beruvchi xujjatlarda ham turizm sohasini rivojlantirish alohida ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan. Unda turizmni iqtisodiyotning drayver tarmoqlaridan biriga aylantirish, ichki va tashqi turistlar oqimini keskin oshirish, hududlarning turistik jozibadorligini kuchaytirish, zamonaviy turistik klasterlar va raqamli xizmatlarni joriy etish orqali sohaning raqobatbardoshligini oshirish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida mamlakatimizda turistlar oqimini ko'paytirish va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilab olingan. 2030-yilga kelib mamlakatimizga keladigan xorijiy turistlar sonini 20 millionga va ziyorat turizmi yo'nalishida tashrif buyuruvchilar sonini 3 milliongacha yetkazish vazifasi

¹ UN Tourism Data Dashboard | Key Indicators. <https://www.untourism.int/tourism-data/un-tourism-tourism-dashboard>

qo'yilgan².

Jahon turizmi rivojlanishida muhim tendensiyalardan biri ziyorat turizminiga e'tiborning kuchayishidir. Tarixiy va diniy diqqatga sazovor joylarga boy O'zbekiston ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Mamlakatimiz hududida 7,4 ming madaniy meros obyektlari bor bo'lib, ulardan mingdan ortig'i ziyorat obyektlari hisoblanadi. Respublikamizda dunyoning turli burchaklaridan kelgan ziyoratchilarni o'ziga tortadigan, yurtimizda yashab ijod qilgan, islom olamida mashhur ko'plab ulamolar nomi bilan bog'liq ko'plab ziyoratgohlar, maqbaralar, masjidlar va tarixiy obidalar joylashgan. Shu bilan birga, mamlakatda boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar uchun ham aziz bo'lgan tarixiy qadamjolar bor. O'zbekiston hududida turli konfessiyalar – islom, xristianlik (pravoslaviya va katolitsizm), iudaizm, buddizm, zoroastrizmning rivojlanishi bilan bog'liq 500 dan ortiq yodgorliklar va tarixiy joylar mavjud. Bu esa ziyorat turizmini rivojlantirish uchun jiddiy asos va imkoniyatdir va mamlakatimizning ziyorat turizmi imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarurligini ifodalaydi.

Turizmning ushbu turini rivojlantirish nafaqat hududlarning iqtisodiy yuksalishi, balki mamlakat madaniy merosini asrab-avaylash va targ'ib qilishga ham xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ziyorat turizmi insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib, diniy e'tiqod, madaniyat va turizmning o'zaro uyg'unlashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi. U ko'p asrlik an'analar, qadriyatlar va marosimlar bilan bog'liq bo'lib, insonlarni muqaddas joylarga sayohat qilishga undaydi. Ziyorat turizmi nafaqat diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan sayohat shakli, balki jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarni rivojlantiruvchi muhim omillardan biri ham hisoblanadi. Bugungi kunda diniy, ziyorat turizmi masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarni tahlil qilish asosida quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilayotganligini ko'rishimiz mumkin:

- ziyorat va turizm tushunchalarining uyg'unligi bilan bog'liq bo'lgan atamashunoslik masalalari;
- turistlarni ziyoratga undovchi motivatsiyalarni aniqlashga yondashuvlar;
- ziyorat turizmini, xususan, ayrim din, konfessiyalar va mintaqalarda uni tashkil etish masalalari;
- ziyorat turizmi iqtisodiyoti va marketingi masalalari;
- ziyorat turizmining alohida obyektlarini o'rganish, ziyorat marshrutlarini tuzish masalalari

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo'lganidek, ziyorat turizmi an'anaviy shakllardan tashqari, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar bilan boyitilgan holda rivojlanmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi turizmga xarajatlarni kamaytirish, kompaniyalar samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, raqamli tovar va xizmatlar bozorida o'z o'rnini egallash uchun yangi turdagi turistik mahsulotlarni chiqarish imkonini beradi. Jahon tajribasi turizmga raqamlashtirish virtual reallik, kengaytirilgan reallik va 3D

² O'zR Prezidentining PF-21-sonli "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz/docs/-8050769>

modellash tirish kabi texnologiyalarning keng qo'llanilishini ko'rsatadi.

O'zbekistonda bu texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish zamonaviy sayohatchilarning o'zgaruvchan talablariga javob beruvchi turistik mahsulotlar yaratish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiyalar yordamida turistlarni o'tmishga olib borishimiz mumkin, bu ularga bizning qadimiy shaharlarimizni virtual kashf qilish, tarixiy voqealarga guvoh bo'lish va allomalarimiz hayoti va ilmiy merosi bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Respublikamizda tarixiy yodgorliklar, madaniy meros obyektlarini asrab-avaylab, ularni global turizm tarmog'iga faol jalb etish borasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirilmoqda.

Jumladan, hozirgi paytda mamlakatimizning mashhur tarixiy obidalarining 3D tasvirlari ishlanib global internet tizimlariga joylanmoqda. 3D modellash tirish yordamida sayyohlar o'zlari tashrif buyurishni rejalashtirayotgan joylarni oldindan ko'rish imkoniyatiga ega. Virtual ekskursiyalar, 360 daraja panoramalar va interaktiv turlar tufayli ular mamlakatimizning ziyoratgohlari haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'ladilar. Shuningdek, yodgorliklar va tarixiy obyektlarni 3 D modellash tirish orqali raqamli formatda saqlanishi va, eng muhimi, rekonstruksiya qilinishi mumkin. Bu esa ularning kelajak avlodlarga yetkazilishiga va ta'limiy maqsadlarda qo'llanilishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, ziyorat turizmini barqaror rivojlantirish maqsadida ekologik yondashuvlar ham joriy etilmoqda. Katta miqdordagi turistlar oqimi ziyorat obyektlarining ekologik holatining yomonlashuviga olib keladi. Ziyorat obyektlarida ekologik muvozanatni saqlash uchun barqaror rivojlanish tamoyillarini turizmga qo'llash talab etiladi. Masalan, muqaddas joylarga ziyorat qiluvchilar uchun ekologik toza transport vositalaridan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha maxsus qoidalar ishlab chiqish va ziyoratchilarning ekologik ongini oshirish kabi choralar ko'rilmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, turizm sohasi islohoti va uning o'sish sur'atlari kadrlar salohiyati va sifatiga alohida talablar qo'yadi. Mazkur vazifalar oliy ta'lim muassasalari oldiga nafaqat raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, balki turizm sohasidagi dolzarb muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish vazifasini ham qo'ymoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi turizm yo'nalishida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib boruvchi yetakchi markaz sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Ziyorat turizmi sohasi mutaxassislaridan keng qamrovli bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Bunda mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy xizmat ko'rsatish madaniyati, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va xalqaro muloqot ko'nikmalari bilan ham belgilanadi.

Avvalo, ular diniy va madaniy meros bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi lozim, chunki ziyoratchilar uchun muqaddas joylarning tarixi va ahamiyatini to'g'ri tushuntirish muhimdir. Shuningdek, xorijiy tillarni bilish, xizmat ko'rsatish madaniyati va zamonaviy turizm texnologiyalaridan xabardor bo'lish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda raqamli xizmatlardan foydalana olish, ekologik barqarorlik tamoyillariga rioya qilish va ziyoratchilarning ehtiyojlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Akademiyada ziyorat turizm sohasidagi dolzarb muammolarni hal etishga va innovatsiyalarni joriy etishga tayyor, arab, fors, turk tillari kabi sharq va g'arb tillarini

mukammal biluvchi, dunyo dinlari tarixi, islom dini va dunyoviy fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan allomalar merosi, milliy va xorijiy qadamjolar, me‘moriy obidalar tarixi haqida chuqur bilimga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlanadi. Bu vazifalarni samarali amalga oshirish esa ilmiy-ta’limiy hamkorlikni yanada kengaytirish, tajriba almashish va qo‘shma ilmiy loyihalarni rivojlantirishni talab etadi.

Jahon turizm industriyasida kechayotgan global transformatsiya va raqamlashtirish jarayonlari mazkur sohani iqtisodiyotning an’anaviy tarmog‘idan yuqori texnologik va innovatsion ekotizimga aylantirdi. O‘zbekistonning boy madaniy-tarixiy va diniy merosi, ayniqsa, mingga yaqin islomiy va 500 dan ortiq turli konfessiyalarga tegishli ziyorat obyektlarining mavjudligi mamlakatni global ziyorat turizmi markazlaridan biriga aylantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga (20 mln. xorijiy va 3 mln. ziyorat turizmi sayyohlari) erishish faqatgina an’anaviy infratuzilmani rivojlantirish bilan cheklanmay, sohaga Smart-Tourism (Aqlli turizm) konsepsiyasini, 3D modellashtirish va VR/AR texnologiyalarini jadal joriy etishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, turistlar oqimining keskin ortishi ziyorat obyektlarining ekologik barqarorligini saqlash va “yashil turizm” tamoyillarini integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday ko‘p qirrali va yuqori texnologik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri kadrlar salohiyatiga bog‘liq. O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi singari tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan ham diniy-tarixiy, ham raqamli va til bilish kompetensiyalariga ega bo‘lgan zamonaviy mutaxassislarning tayyorlanishi milliy turistik mahsulotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlovchi eng asosiy drayver hisoblanadi. Bozor talablariga mos innovatsion kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish O‘zbekiston turizm industriyasining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishining kafolatidir.

Нурислом ТУХЛИЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси ҳақиқий аъзоси, академик,
Ўзбекистон халқаро исломишунослик академияси профессори, и.ф.д.

“ЎЗБЕКИСТОН – 2030” СТРАТЕГИЯСИ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ

***Аннотация.** Мазкур тезисда “Ўзбекистон – 2030” стратегияси доирасида туризм соҳасини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари таҳлил қилинган. Туризмнинг иқтисодий ўсишидаги аҳамияти, ЯИМ динамикаси ва 2025–2030 йилларга мўлжалланган асосий мақсадли кўрсаткичлар ёритилган.*

***Калит сўзлар:** Ўзбекистон – 2030, туризм, ЯИМ, иқтисодий ўсиш, туристик хизматлар экспорти, ички туризм, ташқи туризм, туристлар оқими, туризм кластери, инвестициялар.*

***Аннотация.** В тезисе рассмотрены приоритетные направления развития туристической отрасли в рамках Стратегии «Узбекистан – 2030». Освещены значение*